



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDIT LARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQUV HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмуродовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLISH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLISH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODEL VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIDA MUHIMLIK VA RISK DARAJALARINI ANIQLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH: BIG DATA VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN IT-AUDIT PLATFORMASI KONSEPSIYASI.....	241
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	249
Ismailov Azizbek Madaminovich	
AHOLI REAL DAROMADLARINI OSHIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	258
Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA SUG'URTA ISHINI YURITISH XARAJATLARI: TAHLIL VA ANALITIK HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	265
Murodov Habibullo Qodir o'g'li	
NUKUS SHAHRI MISOLIDA MAHALLALARNING DEMOGRAFIK SIG'IMI ASOSIDA LOKAL XIZMAT KO'RSATISH OBYEKTLARINI NORMATIV LOYIHALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI.....	273
Bauetdinov Berdaq Zinatdin o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING INSTITUTSIONAL MUSTAQILLIGI VA TASHKILY SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	278
Berdiyev Sunnatullo Alikulovich	



OLIY TA'LIM MUASSASALARINING INSTITUTIONAL MUSTAQILLIGI VA TASHKILIY SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Berdiyev Sunnatullo Alikulovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, assistent-o'qituvchi

E-mail: sunnatulloberdiyev22@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada universitetlar mustaqilligi va tashkiliy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy manbalar hamda O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi islohotlar asosida tahlil qilindi. Universitet mustaqilligining tashkiliy, moliyaviy, akademik va kadrlar yo'nalishlari tashkiliy samaradorlik bilan qiyosiy baholandi. Xalqaro tajriba umumlashtirildi hamda boshqaruv sifati va hisobdorlik mexanizmlarining ahamiyati asoslab berildi. Tadqiqot natijalari universitet mustaqilligi tashkiliy samaradorlikka samarali boshqaruv orqali ijobiy ta'sir ko'rsatishini hamda muvozanatli boshqaruv modeli oliy ta'lim muassasalari rivojlanishini qo'llab-quvvatlashini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: universitet mustaqilligi, tashkiliy samaradorlik, oliy ta'lim, akademik erkinlik, boshqaruv, hisobdorlik.

Аннотация. В статье на основе научных источников и реформ системы высшего образования Узбекистана проанализирована взаимосвязь между автономией университетов и организационной эффективностью. Организационные, финансовые, академические и кадровые аспекты университетской автономии сопоставлены с показателями организационной эффективности. Обобщён международный опыт, а также обоснована роль качества управления и механизмов подотчётности. Результаты исследования показали, что автономия университетов оказывает положительное влияние на организационную эффективность через эффективное управление, а сбалансированная модель управления способствует развитию высших образовательных учреждений.

Ключевые слова: автономия университетов, организационная эффективность, высшее образование, академическая свобода, управление, подотчётность.

Abstract. This article examines the relationship between university autonomy and organizational effectiveness based on scientific literature and the higher education reforms implemented in Uzbekistan. The organizational, financial, academic, and human resource dimensions of university autonomy are comparatively assessed in relation to organizational effectiveness. International experience is synthesized, and the importance of governance quality and accountability mechanisms is substantiated. The findings indicate that university autonomy positively affects organizational effectiveness through effective governance, while a balanced governance model supports the sustainable development of higher education institutions.

Keywords: university autonomy, organizational effectiveness, higher education, academic freedom, governance, accountability.

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv erkinligini kengaytirish O'zbekiston ta'lim siyosatining so'nggi yillardagi ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2019-yilda tasdiqlangan Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi universitetlarga akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqillikni bosqichma-bosqich berish, ularni fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga asoslangan zamonaviy oliy ta'lim muassasalariga aylantirish vazifalarini belgilab berdi [1]. Oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, ta'lim sifatini oshirish hamda oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi [2].

Universitetlarga boshqaruv vakolatlarining kengaytirilishi ularning rivojlanish imkoniyatlarini oshiradi. Shu bilan birga, boshqaruv erkinligining ortishi tashkiliy samaradorlikni qay darajada ta'minlashi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Boshqacha aytganda, boshqaruv mustaqilligining kengayishi



muassasa faoliyati natijadorligini bevosita oshiradimi yoki bu jarayon institutsional salohiyat, boshqaruv sifati hamda resurslardan samarali foydalanish kabi omillarga ham bog'liqmi, degan savol alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligi ko'p o'lchovli tushuncha sifatida talqin qilinadi. Yevropa Universitetlar Assotsiatsiyasi metodologiyasiga ko'ra, u tashkiliy, moliyaviy, akademik hamda kadrlar siyosati bo'yicha mustaqillikdan iborat bo'lib, ushbu yo'nalishlarning har biri universitet faoliyati natijadorligiga turlicha ta'sir ko'rsatadi [3]. O'z navbatida, tashkiliy samaradorlik ham kompleks kategoriya bo'lib, u ta'lim sifati, ilmiy faoliyat natijalari, boshqaruv samaradorligi, moslashuvchanlik va manfaatdor tomonlarning qoniqish darajasi kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi [4].

Mazkur maqolaning maqsadi oliy ta'lim muassasalarining tashkiliy, moliyaviy, akademik va kadrlar siyosati bo'yicha mustaqilligi bilan tashkiliy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy jihatdan tizimlashtirish hamda uni O'zbekistonda amalga oshirilayotgan oliy ta'lim islohotlari nuqtayi nazaridan tahlil qilishdan iborat. Shu maqsadda xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi, mavjud nazariy yondashuvlar umumlashtiriladi hamda oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishga doir ilmiy-amaliy xulosalar shakllantiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalari mustaqilligini baholash bo'yicha eng keng qo'llaniladigan metodologiyalardan biri Yevropa Universitetlar Assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Autonomy Scorecard hisoblanadi. Uning 2023-yilgi nashrida 35 ta mamlakat oliy ta'lim tizimi tashkiliy, moliyaviy, akademik va kadrlar siyosati bo'yicha mustaqillik darajasi asosida 30 dan ortiq ko'rsatkich orqali qiyosiy baholangan [3]. Shuningdek, mazkur tadqiqotda universitetlar faoliyati samaradorligi va natijadorligiga ta'sir etuvchi institutsional omillar ham tahlil qilingan [5].

Tashkiliy samaradorlikni baholashda oliy ta'lim muassasalari uchun eng maqbul yondashuvlardan biri Cameronning ko'p o'lchovli modeli hisoblanadi. Mazkur model samaradorlikni maqsadlarga erishish, resurslardan foydalanish, ichki jarayonlar hamda manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini qondirish nuqtayi nazaridan kompleks baholash imkonini beradi. Shu bois, u universitetlar kabi ko'p funksiyali tashkilotlarni tahlil qilishda keng qo'llaniladi [4].

Universitetlar mustaqilligi va tashkiliy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar turli natijalarni qayd etadi. Ayrim mualliflar boshqaruv mustaqilligi universitetlarning strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatini kengaytirishi, tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvchanligini oshirishi hamda resurslardan samaraliroq foydalanishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar [6]. Boshqa tadqiqotlarda esa mazkur bog'liqlik boshqaruv madaniyati, resurslarni taqsimlash mexanizmlari va kadrlar siyosati bilan chambarchas bog'liq ekanini qayd etiladi.

Empirik tadqiqotlar boshqaruv mustaqilligining ta'siri barcha holatlarda bir xil namoyon bo'lmasligini ko'rsatadi. Yevropa oliy ta'lim tizimlari bo'yicha o'tkazilgan qiyosiy tahlilda mustaqillikning to'rtta yo'nalishi universitetlar faoliyati natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi bo'yicha yetarli statistik dalillar aniqlanmagan. Tadqiqotchilar bunda moliyalashtirish hajmi, institutsional obro' va boshqaruv sifati kabi omillar muhimroq rol o'ynashini ta'kidlaydilar [7]. Rossiya universitetlari misolida o'tkazilgan tadqiqot ham rasmiy mustaqillikning o'zi yuqori ilmiy natijadorlikni kafolatlamasligini, biroq boshqaruv amaliyoti va inson resurslarini samarali boshqarish natijalarga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan [8].

Shu bilan birga, bir qator tadqiqotlarda universitetlar mustaqilligining ijobiy natijalari ham asoslab berilgan. Xususan, G'arbiy Yevropa mamlakatlari tajribasi universitetlarning yuqori darajadagi mustaqilligi ta'lim sifati va bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi [9]. Qiyosiy tadqiqotlarda boshqaruv mustaqilligi universitetlarning tashkiliy tuzilmasi, qaror qabul qilish jarayonlari va o'zgarishlarga moslashuvchanligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [10]. Shuningdek, oliy ta'lim tizimlari bo'yicha olib borilgan ko'p bosqichli tahlillar universitetlar mustaqilligi ayrim institutsional qarorlar, jumladan, ta'lim siyosati va akademik rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda muhim omil ekanini tasdiqlaydi [11].

Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi ham boshqaruv mustaqilligining samarasi uning yaxshi boshqaruv tamoyillari bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Jumladan, Indoneziya oliy ta'lim tizimida universitetlarga berilgan keng vakolatlar hisobdorlik, sifatni boshqarish va strategik rejalashtirish mexanizmlari bilan birgalikda joriy etilganda muassasalar raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshgani aniqlangan [12]. Yevropa tajribasi ham universitetlar mustaqilligini samarali amalga oshirish uchun izchil davlat siyosati, institutsional qo'llab-quvvatlash va muntazam monitoring zarurligini ko'rsatadi [13].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-analitik yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, hujjatlar tahlili hamda konseptual tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy e'tibor oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligi va tashkiliy samaradorligi o'rtasidagi nazariy bog'liqlikni tizimlashtirishga qaratildi.

Tadqiqotning axborot bazasini uch turdagi manbalar tashkil etdi. Birinchi guruhga Yevropa Universitetlar Assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan *Autonomy Scorecard* metodologiyasi va unga oid tadqiqotlar kiritildi [3]. Ikkinchi guruhni tashkiliy samaradorlik nazariyasi hamda universitetlar mustaqilligi va faoliyati samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni yorituvchi ilmiy adabiyotlar tashkil etdi [4–13]. Uchinchi guruhga O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar va strategik dasturlar kiritildi [1; 2].

Tahlil jarayonida dastlab universitetlar mustaqilligining tashkiliy, moliyaviy, akademik va kadrlar siyosati bo'yicha tarkibiy qismlari tizimlashtirildi. Keyingi bosqichda ushbu tarkibiy qismlarning tashkiliy samaradorlikning asosiy yo'nalishlari bilan o'zaro bog'liqligi qiyosiy va konseptual tahlil asosida baholandi. Olingan natijalar jadval va konseptual model yordamida umumlashtirildi.

Tadqiqot sifat (*qualitative*) yondashuviga asoslangan bo'lib, statistik yoki ekonometrik usullar qo'llanilmadi. Barcha xulosalar ilmiy adabiyotlar, xalqaro metodologiyalar hamda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qiyosiy tahlil qilish asosida shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim muassasalari mustaqilligining tashkiliy, moliyaviy, akademik va kadrlar siyosati bo'yicha tarkibiy qismlari tashkiliy samaradorlikning turli yo'nalishlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ushbu bog'liqlikning asosiy jihatlarini 1-jadvalda umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval
Mustaqillik o'lchamlari va tashkiliy samaradorlik sohalarining muvofiqligi¹

Mustaqilligi o'lchami	Asosiy ko'rsatkichlar	Tashkiliy samaradorlikka hissa	Manba
Tashkiliy	Rektorni tanlash tartibi, boshqaruv organlari tarkibi, akademik tuzilma va yuridik shaxs tuzish qarori	Boshqaruvning tezkorligi va strategik moslashuvchanlik	[3]
Moliyaviy	Davlat mablag'i turi, profitsitni saqlash, bino egaligi, o'quv to'lovlarini belgilash	Resurslarni maqsadli taqsimlash va barqarorlik	[5]
Kadrlar	Mustaqil ishga qabul, lavozimga ko'tarish, ish haqi va kasbiy rivojlantirish	Iqtidorli professor-o'qituvchilarni jalb etish va nashr faolligi	[8]
Akademik	O'quv yo'nalishlari, talabalar soni va tanlovi, ta'lim mazmuni	Ta'lim sifati va mehnat bozoriga mosligi	[9]


1-jadval natijalari oliy ta'lim muassasalari mustaqilligining har bir tarkibiy qismi tashkiliy samaradorlikning muayyan yo'nalishiga ko'proq ta'sir ko'rsatishini namoyon etadi. Biroq ushbu tarkibiy qismlarning hech biri alohida holda yuqori natijadorlikni ta'minlamaydi. Masalan, tashkiliy mustaqillik boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini bersa, akademik va kadrlar salohiyati yetarli bo'lmagan sharoitda bu imkoniyat ta'lim sifati yoki ilmiy natijalarning oshishiga olib kelmasligi mumkin. Xuddi shuningdek, moliyaviy mustaqillik resurslarni mustaqil taqsimlash imkonini yaratadi, biroq strategik rejalashtirish va samarali moliyaviy boshqaruv mavjud bo'lmaganda kutilgan natijaga erishish qiyin. Demak, universitet mustaqilligining tashkiliy samaradorlikka ta'siri, asosan, bilvosita mexanizmlar orqali namoyon bo'ladi [6].

Empirik tadqiqotlar ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. Xususan, ayrim tadqiqotlarda universitetning rasmiy mustaqillik maqomi faoliyat natijadorligini bevosita belgilamasligi, aksincha, boshqaruv sifati, inson resurslarini boshqarish va institutsional salohiyat kabi omillar samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [8]. Yevropa oliy ta'lim tizimlari bo'yicha o'tkazilgan miqdoriy tahlillar ham mustaqillikning alohida ta'siri cheklanganligini, moliyalashtirish darajasi, institutsional obro' va boshqaruv sifati kabi omillar natijadorlikni ko'proq belgilashini ko'rsatadi [7]. Universitet mustaqilligi tashkiliy samaradorlikning muhim institutsional sharti hisoblansa-da, uning amaliy samarasi boshqaruv mexanizmlari, resurslardan oqilona foydalanish va hisobdorlik tizimi bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

¹ Manba: [3], [5], [8] va [9] asosida muallif tomonidan tuzildi.



Mustaqillik va tashkiliy samaradorlik o'rtasidagi ushbu o'zaro bog'liqlikning konseptual modeli 1-rasmda keltirilgan. Unda tashkiliy, moliyaviy, akademik va kadrlar siyosati bo'yicha mustaqillik boshqaruv sifati, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda hisobdorlik mexanizmlari orqali universitet faoliyatining asosiy natijalariga ta'sir ko'rsatishi tasvirlangan (1-jadval).



Avtonomiya samaradorlikka vositachi omillar orqali ta'sir etadi

1-rasm. Universitet mustaqilligining tashkiliy samaradorlikka vositachi omillar orqali ta'siri²

1-rasmda keltirilgan konseptual model universitetlar mustaqilligining tashkiliy samaradorlikka ta'siri boshqaruv sifati, strategik rejalashtirish va hisobdorlik mexanizmlari orqali amalga oshirishini ko'rsatadi. Demak, universitetlarga kengroq vakolatlar berilishi o'z-o'zidan yuqori natijadorlikni ta'minlamaydi. Qiyosiy tadqiqotlar ham bir xil darajadagi mustaqillikka ega universitetlar turli natijalarga erishishini, bu esa ichki boshqaruv sifati bilan izohlanishini tasdiqlaydi [10].

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan oliy ta'lim islohotlari ushbu yondashuvning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi universitetlarning akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini kengaytirish hamda "Universitet 3.0" modelini joriy etishni nazarda tutadi [1]. Xalqaro tajriba esa bunday islohotlar boshqaruv sifati va hisobdorlik tizimlari bilan uyg'unlashgandagina yuqori natija berishini ko'rsatadi [12].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, birinchidan, universitetlar mustaqilligi va tashkiliy samaradorligi o'rtasida barqaror, ammo bilvosita bog'liqlik mavjud. Ikkinchidan, ushbu bog'liqlik boshqaruv sifati, resurslardan samarali foydalanish va hisobdorlik mexanizmlariga bog'liq. Uchinchidan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar universitetlarning tashkiliy samaradorligini oshirish uchun zarur institutsional sharoit yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalari mustaqilligi va tashkiliy samaradorligi o'rtasida barqaror, ammo bilvosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Mustaqillik universitetlarga boshqaruv, moliyaviy resurslar, kadrlar siyosati va ta'lim jarayonlarini mustaqil tashkil etish imkonini beradi. Biroq uning amaliy samarasi samarali boshqaruv, strategik rejalashtirish va hisobdorlik tizimlarining rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- oliy ta'lim muassasalarining tashkiliy, akademik, moliyaviy va kadrlar siyosati bo'yicha mustaqilligini kompleks rivojlantirish;
 - boshqaruv vakolatlarini sifatini ta'minlash va natijadorlikni baholash mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish;
 - universitet rahbariyati va boshqaruv xodimlarining strategik boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish;
 - professor-o'qituvchilarni tanlash, rag'batlantirish va rivojlantirishda boshqaruv mustaqilligidan samarali foydalanish;
 - universitetlarda faoliyat natijalarini muntazam baholash va o'z-o'zini tahlil qilish amaliyotini takomillashtirish.
- Mazkur takliflarni amalga oshirish oliy ta'lim muassasalari boshqaruvining samaradorligini oshirish, ta'lim sifati va ilmiy faoliyat natijadorligini yaxshilash hamda ularning milliy va xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/acts/-4545884>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-21-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-8050769>
3. Bennetot Pruvot E., Estermann T., Popkhadze N. *University Autonomy in Europe IV: The Scorecard 2023*. – European University Association, 2023. – <https://www.eua.eu/publications/reports/university-autonomy-in-europe-iv-the-scorecard-2023.html>
4. Ashraf G., Kadir S. A. *A Review on the Models of Organizational Effectiveness: A Look at Cameron's Model in Higher Education // International Education Studies*. – 2012. – <https://www.ccsenet.org/journal/index.php/ies/article/view/12729>
5. European University Association. *Autonomy & Governance*. – <https://www.eua.eu/our-work/topics/autonomy-and-governance.html>
6. Estermann T., Kupriyanova V., et al. *Autonomy, Efficiency and Effectiveness: Opportunities for Higher Education: A Pilot Study*. – Springer, 2020. – https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-56316-5_27
7. *The Impact of Institutional Autonomy on Higher Education Institutions in Europe // Science and Public Policy*. – 2025. – <https://academic.oup.com/spp/article/52/2/236/7917085>
8. *Actual Autonomy, Efficiency and Performance of Universities: Insights from the Russian Case // International Journal of Public Administration*. – 2022. – <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/01900692.2021.1903496>
9. *University Autonomy: Improving Educational Output // IZA World of Labor*. – 2016. – <https://wol.iza.org/articles/university-autonomy-improving-educational-output/long>
10. *University Autonomy and Organizational Change Dynamics*. – ResearchGate, 2014. – https://www.researchgate.net/publication/266949218_University_Autonomy_and_Organizational_Change_Dynamics
11. *University Autonomy Is a Predictor of English Medium Instruction in European Higher Education*. – PMC, 2024. – <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC12413410/>
12. *Governance of Autonomous Higher Education Institution toward World-Class University: A Case Study at the Universitas Indonesia // Journal of Critical Reviews*. – 2020. – https://www.researchgate.net/profile/Lina-Miftahul-Jannah/publication/343904587_Governance_of_Autonomous_Higher_Education_Institution_toward_World-Class_University
13. *Universities under Pressure: The 2023 EUA Autonomy Scorecard*. – EAIE, 2023. – <https://www.eaie.org/resource/eua-autonomy-scorecard.html>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>